EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FUTBOL TERMINLARINING TAVSIFI VA ULARNING MAVZUIY IFODALANISHI

Isoqov Hamroqul
Sam DCHTI lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6584491

MAQOLA TARIXI
Qabul qilindi: 10-may 2022
Ma'qullandi: 14- may 2022
Chop etildi: 24- may 2022

KALIT SO'ZLAR
futbol termini va uning paydo bo'lishi, futbol terminining boshqa tillarda ifodalanishi, soccer, ingliz va o'zbek tillarida futbol terminlarining mavzuiy lug'ati, futbolga oid iboralar.

ANNOTATSIYA

Butun dunyoda sportga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, futbol sport turiga ham e'tibor va ahamiyat juda ortmoqda. Futbol sport turi yildan – yilga rivojlanib yangilanib bormoqda. Ushbu maqolada futbol sport turining va futbol terminining paydo bo'lishi, bu sport turi terminlarining ingliz va o'zbek tilidagi tavsifi, futbol terminlarining mavzuiy jihatdan guruhlarga bo'lib o'rganish va ushbu sport turiga oid ayrim iboralarning ma'nolarini keltirib o'tdik.

Biz futbol sport turini lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz , eng avvalo , "futbol" terminiga va uning kelib chiqishiga e'tibor qaratishimiz kerak. Futbol so'zi inglizcha "foot" — „oyoq", "ball" — „to'p" so'zlaridan olingan bo'lib "oyoq to'pi" degan ma'noni anglatadi. Fudbol tarixiga e'tibor qaratadigan bo'sak, ba'zilar futbol tarixining mil. Avv. 2500 yilgacha cho'zilganini bildirmoqdalar. Bu davrda yunonlar, misrliklar va xitoyliklar to'p va oyoq bilan bog'liq o'yinlar ishtirok etishgan. Futbol Yevropada O'rta asr davridan boshlab rivojlana boshladi. 9-asr atrofida Angliyaning barcha shaharlarida cho'chqa go'shti bir nuqtadan ikkinchisiga o'ralashardi. O'yin odatda qiyinchilik sifatida ko'rindi va Angliya tarixining ayrim davrlarida ham man qilindi. Vaqtlar o'tishi bilan bu sport turiga qiziqish ortdi va butun mamlakat bo'ylab ommalashdi. Fudbol sport turi Buyuk Britaniyaning milliy sport turiga aylandi. Futbolning barcha zamonaviy shakllari industriyadan oldingi ingliz jamiyatidagi "xalq futboli"dan ildiz otgan.[1] Bu sport turi haqida ma'lumot "Devonu lug'otit-turk" («Turkiy so'zlar devoni») — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asarida "tepuk" tarzida uchraydi. Asarda bu sport turi turkiy xalqlarda hayvon terisidan tayyorlangan ma'lum bir jismni oyoq bilan o'ynalganligi ifodalangan Boshqa tillarda, o'yinning nomi inglizcha "futbol" so'zini qarzga olish, rus tilida bo'lgani kabi - "futbol", portugal tilida - futebol, yoki futbol so'zining izlanishidir, masalan, nemis tilida - fussbol, yunoncha - tosfazos , Fin - jalkapallo, yoki "Kick", "oyoq" va hokazo so'zlaridan hosilalar, italyan tilida bo'lgani kabi - calcio, xorvatcha - nogomet. Bu sport turi Amerika va Australiya mamlakatlarida "soccer" deb

yuritiladi. Amerika va Australiyaning rasmiy tili ingliz tili bo'lganligi uchun "soccer" termini ayrim manbalarda futbolning ikkinchu nomi ham deb aytiladi. Fudbol sport turi Angilyada yaratilganligi uchun undagi deyarli barcha terminlar ingliz tilidan olingan. Fudbol sport turining rasmiy tili ham ingliz tili hisoblanadi. Biz o'zbek tiliga futbol terminlarini turli xil usullar bilan o'zlashtiramiz va tarjima qilamiz. Agar inglizcha fudbol termini o'zbek tilida muqobil tarjima variantiga ega bo'lsa, asl ma'nosini saqlab qolgan holda tarjima qilinadi. Misol uchun:

ball – to'p, attack – hujum qilish, defender – himoyachi, corner – burchak,

centre – markaz, central attacker – markaziy huchumchi, kick- tepmoq

Futbolda ayrim so'zlar bor o'zbek tilida muqobil tarjima variantiga ega emas. Biz bu so'zlarni ma'nosiga qarab tarjima qilolmaymiz. Masalan: "Football" so'zini biz (ingl. foot –oyoq, ball – to'p) "oyoq to'pi" deb tarjima qilmaganmiz, balki bu so'zning talaffuziga e'tibor qaratib "futbol" tarzida to'g'ridan - to'g'ri o'zlashtirib olganmiz. Bu so'z bizning tilimizda neologizm yoki o'zlashma deyiladi. Bundan tashqari, inglizcha "goal" so'zini tarjimasiga e'tibor berib 'maqsad" tarzida tarjima qilmasdan, transkripsiyasiga e'tibor bergan holda "gol" shaklida o'zlashtirib olganmiz. Futbol sport turining rasmiy tili ingliz tili hosoblanadi. Bu sport turi Buyuk Britaniyaning milliy sport turi bo'lganligi uchun bu sport turning ayrim terminlarini o'zbek tiliga to'g'ridan – to'g'ri tarjima qilolmaymiz yoki ma'lum bir terminlarni o'zbek tilida muqobil tarjimasi yo'q. Bunga misol tariqasida o'zbek milliy sport turi kurash terminlarini butun keng dunyoda ishlatilayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbek milliy sport turi "Kurash" ham rivojlanib butun dunyo tomonidan tan olinmoqda. Bu sport turining vatani O'zbekiston bo'lgani uchun, undagi terminlar ham o'zbek tilidan olingan. Davlatimizning bevosita ko'llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi, "kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta" va "yonbosh" kabi atamalar esa xalqaro sport lug'ati tarkibidan mustahkam o'rin egalladi. Bu o'zbek tilidan olingan terminlar butun dunyoda tan olindi va keng tarzda ishlatilmoqda.

Ingliz tilida ayrim sport terminlari affiksatsiya orqali shakllanadi. E.R. Medvedeva o'z ishida sport leksemalarining quyidagi eng keng tarqalgan affikslarini aniqlaydi [2, p. 183]:

1. Qo'shimchalar: -ing, -ed, -y ("cross-country skiing" – chang'i yugurish, "dribbling" – futbolda chiroyli harakat qilish, "safety car" – xavfsizlik mashinasi, "lapped car" – aylana avtomobil).

2. Prefikslar: mis-, re-, un-, under - ("miskick" – futbolda to'pga noqulay zarba berish, "restart" – qayta boshlash (poyga), "unseated" - otdan uloqtirish, "underarm". " - suzishda tana darajasidan past olingan zarba). Ingliz tilida prefikslar qo'shilishi orqali yasalgan futbol terminlari mavjud. Masalan: "underdog" – jamoaning kutilmaganda musobaqada g'olib bo'lishi, "midfielder" – yarim himoyachi, "offside" – o'yindan tashqari holat, "reserve team" – zaxira jamoa. Bu so'zlar E.R.Medvedova aytib o'tganlaridek prefikslar ya'ni, under-, mid-, off-, re- lar orqali yasalgan.

Futbol terminlarini o'rganish yosh futbolchilarimiz uchun va bu soha jurnalistlari, sharhlochilari uchun juda foydalidir. Futbol muxlislari va televizorda fudbolni sevib tomosha qiluvchilar ham bu soha terminlarini, iboralarini o'rgan

ishi va ularning ma’no mohiyatini tushunib yetishi uchun albatta, futbol terminalogiyasini o’rganish zarur bo’ladi.

Futbol sport turidagi terminlarni inglizcha va o’zbekcha lug’atini quyidagi mavzuiy turlarga bo’lib o’rganish bu sohaga qiziquvchilar va yosh futbolchilar uchun oson va tushunarli bo’ladi:

Ingliz va o’zbek tillarida futbol o’ynaladigan joy va o’yin uchun kerakli narsalarni ifodalovchi terminlar:

Stadium - stadion
Football pitch – futbol maydoni
Corner – burchak
Goal line darvoza chizig’i
Corner stick – burchak tayoqchasi
Penalty area – jarima maydonchasi
Centre circle – markaz aylanasi
Centre spot – maydon markazidagi nuqta
Pitch centre – maydon markazi
Gate – darvoza
Gate dam – darvoza to’sini
Ball – to’p
Tribune – tomoshabinlar uchun joy
Whistle - hakam hushtagi
Red card – qizil kartochka
Yellow card- sariq kartochka
Flag of the side judge – yon hakam bayrog’i

Futbolda ishtirok etuvchi o’yinchilar va shaxslarning nomlarini ifodalovchi terminlar:

Attacker–hujumchi
Winger– qanot hujumchisi
Central attacker – markaziy huchumchi
Goalkeeper – darvozabon
Defender – himoyachi
Midfielder – yarim himoyachi
Footballer – futbolchi
Coach – murabbiy
Referee – hakam

Futbol o’yindagi futbolchilarning harakatlari va holatlarini ifidalovchi terminlar:

Kick – tepmoq
Foul – qo’pollik ishlatmoq
Attack – hujum qilmoq
Score a goal – gol urmoq
Score an autogoal – o’z darvozasiga gol urmoq
Dribbling – chiroyli harakat qilmoq
Pass – to’pni boshqa o’yinchiga uzatmoq
Short pass – qisqa masofaga uzatma
Long pass - uzoq masofaga uzatma
Throw in – to’pni autdan maydonga kiritish
Corner kick - burchak zarbasini
Free kick – erkin zarba berish
Assist – hujumchiga golli to’p oshirish
Offside – o’yindan tashqari holat
Penalty kick – 11 metrlik jarima zarbasini tepish

Futbol o’yinidagi vatq bilan bog’liq terminlar:

First time – birinchi bo’lim
Second time – ikkinchi bo’lim.

Agar 90 daqiqa ichida ikki jamoa bir xil hisob qayd etsa qo’shimcha bo’limlar bo’ladi va quyidagicha nomlanadi:

First extra time – birinchi qo’shimcha bo’lim
Second extra time – ikkinchi qo’shimcha bo’lim
Break – tanaffus
Water break – suv ichib olish uchun tanaffus

Futbol o’yinida fudbolchi bir o’yinda ikkita yoki uchta va undan ziyod gol urgan taqdirda uning har bir goli alohida nomlanadi:

Gol - oddiy birinchi goli
Double – bir futbolchining o’yinda ikkita gol urishi
Hat-trick - bir futbolchining o’yinda uchta gol urishi
Poker – bir futbolchining bir o’yinda to’rtta gol urishi
Penta-trick – bir o’yinchining bir o’yinda beshta gol urishi

EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz

Double hat-trick – bir o’yinchining bir o’yinda oltita gol urishi
Octa-trick – bir o’yinchining bir o’yinda yetti dona gol urishi
Futbol sport turidagi xalqaro tashkilotlar va yirik musobaqalarning nomlanishi:
FIFA - International Federation of Association Football –
Xalqaro futbol federatsiyasi
UEFA - The Union of European Football Associations –
Yevropa futbol assotsiatsiyalari ittifoqi
AFC - Asia Football Confederation – Osiyo Futbol Konfederatsiyasi
CAF - Africa Cup of Nations – Afrika Millatlar Kubogi
FIFA World Cup – Jahon Chempionati
European Cup – Yevropa Chempionati
Asian Cup – Osiyo Chempionati
Futbol sport turida terminlar va tushunchalar juda ko’p miqdorda. Futbol sport turi frazeologik jihatdan ham juda keng ko’lamli frazeologik lug’at boyligiga ega hisoblanadi. Chunki bu o’yinda maydon keng, o’yinchilar miqdori ko’p va shu sababli juda ko’p harakatlarni amalga oshirsa bo’ladi. Futbolchilarning juda ko’p harakatlari va murabiyning o’yin uchun tuzgan himoya va hujum usullari ko’p miqdordagi frazeologik birliklar borligining yaqqol dalilidir. Albatta, futbolchilar va ularning muxlislari o'zlarining jarangdor va qiziqarli iboralariga ega, ular ko'pincha sharhlovchilar tomonidan qo'llaniladi. O'yinni tushunish va yosh sportchilarni sport haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi futbol iboralarini ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qildik:

No one! - Ortda! Odatda, futbolchilar raqib unga yaqinlashayotganini va to'pni olib qo'ymoqchi bo'lganlarini ko'rishganda, o'z jamoalari o'yinchisiga baqirishadi.
The sweetness of your left / right foot - bu yaxshi o'ynaydigan va chap / o'ng oyog'i bilan gol urgan o'yinchi haqida.
We were kidnapped! - Agar o'yin adolatsiz bo'lsa, muxlislar bu iborani baqirishadi.
To hit the wood - barga kiring.
The team stumbled - jamoa boshidan boshqargan. Ular birinchi daqiqalardan boshlab yuqori darajadagi o'yin namoyish etadigan jamoani shunday tasvirlaydilar.
He’s very fast - u juda tezkor.
The goalkeeper holds a clean sheet - darvozabon birorta ham to'pni o'tkazib yubormadi.
A long ball game - uzoq paslar bilan o'yin. Odatda juda zerikarli va ko'ngilochar o'yin.

Futbol sport turi terminlari boshqa sport turlariga qaraganda ko’proq lu’g’at boyligiga ega. Ushbu maqola orqali yosh futbolchilar va futbol sport turiga qiziquvchilar ma’lum bir darajada futbol sport turning va futbol terminining paydo bo’lishini va terminlarni alohida mavzuiy guruhlarga ko’ra o’rganishi mumkin. Shuningdek, bu maqolada futbol terminlarining ingliz tili va o’zbek tilidagi tavsifini va ikki tilda futbol terminlarining tarjima qilish va terminlarni neologizm va o’zlashma sifatida qabul qilinishi haqida ma’lumotlar berildi. Ma’lum bir darajada ushbu sport turiga oid ibora va tushunchalarni keltirib o’tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Collins, Tony (1998). Rugby's Great Split, page 1. Frank Cass.
2. Medvedeva, E.R. “Sport nutqida terminologik nominatsiya (nemis, ingliz va rus tillari materiallari bo'yicha)” / E.R. Medvedev // Vestnik VolGU. 9-seriya: Yosh olimlar tadqiqotlari. - 2013. - 11-son. – 181-185-betlar.

3. Copyright © 2022 Oxford University Press. Oxford English Dictionary.
4. https://qomus.info/oz